

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QIUVCHILARINI MILLIY HUNARLARGA YO'NALТИРИШ JARAYONIDA IJODIY FAOLIYAT

Gulchehra Safarovna Pardayeva

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti

Pedagogika kafedrasи katta o'qituvchisi, Samarqand.

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qiuvchilarini milliy hunarlarga yo'naltirish jarayonida ijodiy faoliyatning tashkil etishning muammolarini va yechimlarini yoritishga qaratilgan. Unda o'qiuvchilarni milliy hunarlarga yo'naltirishga taylorlash jarayonida ijodiy ishlarni bajarishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan bo'lib, o'qiuvchida ijodiy mehnat ko'nikma va malakalarini takomillashtirishning samarali shakllari yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliy hunarlar, faoliyat, tizimlilik, mustaqil, ijod.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 19 mart kuni ilgari surgan besh muhim tashabbuslari ham ijtimoiy faol talaba-yoshlarni tarbiyalashda ta'llim mussasasi o'rni va ahamiyati juda yuqori. Chunki, ushbu ilgarisurilgan —Beshta eng muhim tashabbusda yoshlarga bo'lган e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash|| kabi vazifalar mamlakatni ertangi kuni uchun, yetuk, yoshlarni barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim o'rinnegallaydi. Zamonaviy oliy pedagogik ta'llim rivojlanishi bosqichining o'ziga xos jihat bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligini maqsadli, mazmuniy va texnologik o'zgartirish hisoblanadi. Maqsadni qo'yish apparatining o'zgarishi taxsil oluvchining o'z o'quv faoliyati sub'yekti sifatida qabul qilinishi, demak, sub'yektli-ob'yektli munosabatdan sub'yekt-sub'yektli (shaxsiy) munosabatga ega o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari paradigmaining almashinuvi bilan shartlangan; mazmuniy va texnologik qayta o'zgarishlar yangi maqsadlarga erishishni ta'minlashi kerak. Pedagog kasbiy tayyorgarligi muammosi bugungi kunda mamlakatda tezda o'zgarib turadigan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga, ya'ni o'qituvchiga sotsial va madaniy rol ajratiladigan mamlakatda alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlantiruvchi ta'llimi amalga oshirish va o'quv faoliyatini shakllantirishga tayyorlash bu tizimning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib ilgari suriladi. Bo'lajak o'qituvchini boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlantiruvchi ta'llimi amalga oshirishga tayyorlash mohiyatining aniqlanishi uning o'ziga xosligi, tuzilishi va funksiyalarining yoritilib berilishi, mazkur

tizim tarkibiy qismlari o'rtasida qonuniy aloqalarning tahlil qilinishi, amalga oshirilishiga asos soluvchi tamoyillari va natijaviy-maqsadli yo'naliшhlarining belgilanishini nazarda tutadi. Bo'lajak o'qituvchini boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish tayyorlash mohiyatini tushunish va bir qator tadbirlarni amalga oshirish uchun uni bir butun tizim sifatida tasavvur qilish zarur.

Zamonaviy jamiyatda nafaqat bilim olish, balki uni amalda qo'llay olish ham muhimdir. Ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy hunarlarga yo'naltirishga tayanch kompetensiyalar asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "...yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hyech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" – deb alohida qayd etganlar. Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida bo'layotgan o'zgarishlar umumta'lim mакtablariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Oliy o'quv yurtlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda zarur bo'ladigan malaka ko'nikmalari ham 35-45 foiz vaqt zahirasi talabalarning mustaqil ijodiy ishlariga har bir fanni o'rganish negizida vaqt taqsimoti ajratiladi. Bevosita o'quv yuklamalaridan ko'rsatilgan o'quv dars mashg'ulotlarida nazariy, amaliy va mustaqil ta'lim sifatida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatiga keng o'rinn ajratilgan holda o'quv rejasi va dasturidagi ta'lim mazmunini o'zlashtirish tashkil etiladi. O'quv mashg'ulotlarining nazariy qismida ham yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, interfaol noan'anaviy usullar keng qo'llanilmoqda. Amaliy mashg'ulotlar esa seminar, laboratoriya disput, suhbat tarzida tashkil etilib, muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularning yechimlarini topish uchun yo'naltirilgan. Mustaqil ta'limda esa bevosita o'quv reja va dasturlarining uzviyligini ta'minlovchi nisbatan muhim va murakkab hisoblangan mavzularni talabalar tomonidan mustaqil ravishda chuqur va har tomonlama kengroq o'rganishga mo'ljallangan.

Quyida oliy o'quv yurtlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida samarali foydalanilishi mumkin bo'lган mustaqil ijodiy ishlarni nomlarini keltirib o'tiladi. Ularni turli xil hududiy, mintaqaviy, mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga muvaffaqiyatli joriy etish mumkin.

1. Texnologiya fani negizida qog'oz, karton, simlar va gazlamalar hamda har xil tabiiy, sun'iy materiallardan turli xil shakllar, o'yinchoqlar, narsalar yassash.

2. Ta'lim tizimida, o'quv jarayonida va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir (amaliyotlar davrida) uslubiy ishlanmalar tayyorlashda ishtirok etish. O'quv mashg'ulotlarining elektron ishlanmalarini tayyorlash va amalga joriy etish.

3.Jurnallarda, gazetalarda, to'plamlarda mavzuli anjumanlar konferensiyalarda ilmiy-amaliy, uslubiy, pedagogik va psixologik mazmundagi maqolalar, ma'ruzalar, tezislar tayyorlash bilan chiqishlar qilish.

4.Ilmiy hisobotlar tayyorlashda ishtirok etish (xo'jalik hisobidagi shartnomalar asosida tadqiqot ishlarini bajarish bo'yicha).

5.Ta'lim muassasasi (maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus o'quv yurtlari) o'quv reja va dasturining alohida qismlari, bo'limlarini takomillashtirish uchun uslubiy tavsiyalar, ishlanmalar tayyorlashda qatnashish.

6.Ta'limning didaktik vositalarini loyihalash, tuzish, qurish ishlarini bajarish. Texnologik va perfo xaritalar tayyorlash, slaydlar yaratish.

7.O'quvchilarning turli faoliyatları (o'yin, o'yin-dars, mehnat, sportsog'lomlashtirish, ijodkorlik, ishlab chiqarish, jamoatchilik va boshqalar)ni tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda va ularni amalga joriy etishda qatnashish.

8.Turli pedagogik, psixologik, didaktik, metodik ilmiy tadqiqot izlanish va kuzatishlarda, tajriba sinov ishlarida ishtirok etish testlar, test-anketa, suhbatlarsavolnomalari, kuzatishlar kartochkalari tuzish, intervylular o'tkazish ularni muhokama hamda tahrir qilishda qatnashish.

9.Fanlar olimpiadalari, ko'rik tanlovlari, turli musobaqalarda, ilmiy-metodik anjumanlar va seminarlarda ishtirok etish.

10.O'quv muassasasi jamoatchilik tashkilotlari, mahalla, hokimiyatlar vakillari bilan turli xil madaniy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, hasharlarda faol ishtirok etish va boshqalar.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlardagi mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etishda mamlakatimizning har bir mintaqasi, hududida, har bir oliv ta'lim muassasasidagi mavjud imkoniyatlarini o'rganib chiqib, turli xil samarali shakllarini tanlab olish, joy sharoitiga moslashtirish va amalga joriy etish mumkin bo'ladi. Albatta, har bir o'quv fani yo'nalishlari bo'yicha mustaqil ta'lim shakllarini tashkil etishda asosiy nazariy yo'l-yo'riqlar, bilimlar o'quv auditoriya mashg'ulotlarida berilsa-da, amaliy ko'nikma va malakalar shu turkumdag'i seminar, trening, laboratoriya mashg'ulotlarida shakllantiriladi.

Mustaqil ijodiy faoliyatida boshlang'ich sinflar o'qituvchilari kasbiy mahoratining dastlabki qirralari ham shakllantirilib, takomillashib ham boradi. Masalan, yuqorida keltirilgan yo'nalishlarning dastlabki 1 va 2 qismlarini bajarishda ular mustaqil ijodiy ishlarni belgilangan talablar asosida amalga oshiradilar. Bu hol esa, mustaqil pedagogik faoliyatda ularning turli xil shu yo'sindagi ishlarni bajarishlariga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining turli xil materiallardan (rangli va rangsiz qog'ozlar, karton, plastilin, plastmassalar, simlar, gazlamalar, tabiiy va sun'iy, sintetik

materiallar va boshqalar.) narsalar va buyumlarning shakllarini tayyorlashlari ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda yuqoridagi yo'nalishlarning 4-5 qismlarida faol qatnashishlarida muhim hisoblanadi. Chunki, narsa, buyumlarni tayyorlash, jarayonlarni tasvirlash nisbatan ko'p vaqtini va jihozlarni talab etganligi sababli bevosita dars mashg'ulotlaridagi vaqt zahirasi yetishmasligi mumkin. Shuning uchun bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ushbu yo'nalishdagi amaliy mustaqil ijodiy faoliyatiga ham jiddiy e'tibor berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev.||Yangi O'zbekiston strategiyasi||.2021 yil
2. Ergasheva M.||Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishning pedagogic shart sharoitlari haqida ma'lumot||Ta'lim fidoiyatlari,13 son. 1-jild.Yanvar.
- 3.Konarjevskiy Yu.A. Pedagogicheskiy analiz uchebno-vospitatel'nogo protsessa i upravleniye shkoloy. — M.: Pedagogika. — 1986. — 144 s.
4. Ergasheva.M.The Role Of Mathematical Issues In Improving The Methodological Training Of Future Mathematics Teachers. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN: 2509-0119. © 2021 International Journals of Sciences and High Technologies http://ijpsat.ijsht-journals.org Vol. 25 No. 2 March 2021, pp. 94-97
5. Application of information and communication technologies in solving geometric problems. Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 4191.
6. Pardayeva G. Boshlang'ich sinf o'qiuvcilarini milliy hunarlarga yo'naltirish jarayonida ijodiy faoliyat. Образование наука и инновационные идеи в мире. Vol. 22 No. 4 (2023)